



XALQ DEPUTATLARI FARG‘ONA TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2024-yil 4-oktabr

VI-89-90-11-163-K/24

Farg‘ona tumani

Farg‘ona tuman hokimining Yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari Toshpo‘latov Ilxomjon Baxtiyorovichning O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagagi “O‘zbekiston - 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar yuzasidan tasdiqlangan Davlat dasturining Farg‘ona tumanidagi ijrosi yuzasidan hisoboti to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagagi “O‘zbekiston - 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-37-sonli Farmoni asosida qabul qilingan viloyat hokimining 2024-yil 6-martdagи 136-11-0-Q/24-sonli qarori ijrosi yuzasidan tuman hokimining qarori qabul qilinib, ijroga qaratildi. Mazkur qaror ilovasi bilan tumanda “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi tasdiqlanib, dastur **9 ta** asosiy yo‘nalishlarni qamrab olgan **141 banddan** iborat.

Dasturda belgilangan topshiriqlar bandlari komplekslar bo‘yicha quyidagicha tasniflangan:

Iqtisodiy kompleksda	- 17 ta band
Qurilish kompleksida	- 30 ta band
Investisiya kompleksida	- 18 ta band
Tuman oila va xotin-qizlar kompleksida	- 6 ta band
Yoshlar siyosati kompleksida	- 54 ta band
Qishloq xo‘jaligi kompleksida	- 10 ta band
Tashkiliy-kadrlar guruhida	- 6 ta bandlar taaluqli.

Dasturning **54 ta bandi**, bunda Maktabgacha va maktab ta’limi yo‘nalishida **12 ta** band, Tibbiyat yo‘nalishida **13 ta** band, Yoshlarni xar tomonlama qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishida **6 ta** band, Ma’naviyat va ma’rifat yo‘nalishida **6 ta** band, Madaniyat yo‘nalishida **4 ta** band, Aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishida **3 ta** band hamda turizm yo‘nalishida **4 ta** bandlar ijtimoiy yo‘nalishga taaluqli xisoblanadi.

“Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da belgilangan davlat dasturi doirasida tumanda ham tizimli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Xususan, joriy yilning o‘tgan 9 oyi davomida tuman dasturini ijrosi bo‘yicha quyidagi ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, 1-maqsad, ya’ni Maktabgacha ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish hamda bolalarning to‘liq qamrovini ta’minlash yo‘nalishining 1 bandiga asosan Maktabgacha ta’lim bilan qamrov darajasini yil yakuniga qadar 92,4 foizga yetkazish belgilangan bo‘lib, bugungi kunda hududlarda **13 ta** Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlariga qo’shimcha guruhlar ochish orqali **390 nafar**, **2 ta** Davlat xususiy sherikchiligi shaklidagi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkiloti quvvatini **100 o’ringa** oshirib **100 nafar**, shuningdek, **12 ta** oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlariga **516 nafar, jami - 1006 nafar** ta’lim yoshidagi bolalar qamrab olinib, qamrov darajasi 82,3 % ga yetkazildi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlariga qamrovni yil yakuniga qadar belgilangan ko‘rsatgichlarga yetkazish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni belgilab olganmiz.

3-maqsad, ya’ni umumiyo‘rtta ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish yo‘nalishida umumiyo‘rtta ta’lim muassasalariga 1 nafardan xorijiy til egalari - mutaxassislarini jalg qilish belgilangan bo‘lib bugungi kunga kelib, tumandagi 33, 62 - sonli umumiyo‘rtta ta’lim muassasalariga Rossiya Federatsiyasidan 1 nafardan xorijiy til egalari - mutaxassislarini jalg etildi.

13-maqsad: Aholining o‘rtacha umr davomiyligini oshirish yo‘nilishining 10-bandiga asosan Aholi o‘rtasida **surunkali kasallikkarni barvaqt aniqlash** va ular bilan kasallanish holatlarini keskin kamaytirish bo‘yicha yil yakuniga qadar **18-40 yoshli 75 263 ming nafar** aholini profilaktik ko‘rikdan o‘tkazish va natijalariga ko‘ra fuqarolarni sog‘lomlashtirish rejalashtirilgan bo‘lib, bugungi kunga kelib **56 450 nafar** aholi tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilib, kasalliklar aniqlangan fuqarolarga tegishli tartibda tibbiy yordamlar ko‘rsatib borilmoqda.

Bundan tashqari **11-bandga** asosan Aholining yuqumli bo‘lmagan kasallikkarni oldini olish, ularning xavf omillari, erta aniqlash va davolash bo‘yicha xabardorligini oshirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqilib, bunda aholi uchun “Vodil yog‘dusi ruznomasida maqolalar chop etish, tuman tibbiyat birlashmasi “Salomatlik saboqlari” telegram kanalida mavzuni yoritib borish, aholi uchun yaratilgan qisqa ijtimoiy video roliklarni maktablarda, o‘rtta maxsus bilim yurtlarida namoyish qilib borilmoqda.

22-maqsad: Professional ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatish tizimini tubdan takomillashtirish yo‘nilishining 23-bandiga asosan Ijtimoiy himoya qilish tizimi orqali har bir mahalladagi ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini **to‘liq qamrab olish bo‘yicha** sinov tariqasida **“Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi** va professional ijtimoiy xodimlar faoliyati yo‘lga qo‘yildi, oila soni, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi guruhlariga asosan ijtimoiy xodimlarni **“hudud - uchastka - mahalla” tamoyili** asosida biriktirildi hamda og‘ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan oilalarga kompleks ijtimoiy yordamlarni ko‘rsatishni keys-menejment tizimi orqali bosqichma-bosqich yo‘lga qo‘yildi.

30-maqsad: Yoshlarni zamonaviy kasblar va chet tillariga o‘qitish tizimini yaratish yo‘nilishining **38-bandiga** asosan Yoshlarni zamonaviy kasblarga o‘qitish bo‘yicha maqsadida ijtimoiy tarmoqlarda, ta’lim muassasalarida, ko‘ngil ochar maskanlarda va savdo do‘konlarida “Ibrat farzandlari” loyihamonlari keng targ‘ibot ishlari tashkil etilib, loyiha doirasida yoshlarni zamonaviy kasblarni egallashiga ko‘maklashib borilmoqda.

32-maqsad: Yoshlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va ishsizlik darajasini kamaytirish yo‘nalishida.

Yoshlarning bandligini ta’minlash bo‘yicha Bunda ijtimoiy himoyaga muhtoj va “og‘ir” toifadagi yoshlarni “Yoshlar daftari”ga kiritish va ularning muammolarini hal etish, ijtimoiy-iqtisodiy xizmatlar ko‘rsatish, jumladan, subsidiya, kompensatsiya va moddiy yordam ajratish choralarini ko‘rilmoqda.

Jumladan, joriy yilning o‘tgan 9 oyi davomida jami 551 nafar yoshlar “Yoshlar daftari”ga kiritilgan bo‘lib, shundan 419 nafar yoshlarga ijtimoiy-iqtisodiy xizmatlar ko‘rsatish, jumladan, subsidiya, kompensatsiya va moddiy yordam ajratish orqali “Yoshlar daftari”dan chiqarildi.

Xususan, 8 nafar yoshlarni doimiy ish o‘rinlariga joylashtirish orqali, 35 nafar yoshlarga mehnat qurollari olib berish orqali, 282 nafar yoshlarga to‘lov-kontraktini to‘lab berish orqali, 26 nafar yoshlarni kelajak kasblariga o‘qitish orqali, 3 nafar yoshlarga tibbiy xizmat ko‘rsatish orqali, 5 nafar yoshlarga haydovchilik guvohnomasi olishlari hamda 60 nafar yoshlarga boshqa turdag'i yordamlar orqali “Yoshlar daftari”dan chiqarildi.

Hozirki kunda “Yoshlar daftari”da mavjud 132 nafar yoshlarga quyidagi yordamlar orqali “Yoshlar daftari”dan chiqarilish rejalashtirilgan.

Jumladan, 9 nafar yoshlarga bir martalik moddiy yordam berish orqali, 2 nafar yoshlarni tadbirkorlik va kasb-hunarga o‘qitish orqali, 5 nafar yoshlarga haydovchilik guvoxnomasini olishlari uchun o‘qitish orqali, 38 nafar yoshlarga asbob-uskunalar va mehnat qurollari olib berish orqali, 49 nafar yoshlarni to‘lov-kontrakt summalarini to‘lab berish orqali, 9 nafar yoshlarni zamonaviy kasblarni egallashi, axborot texnologiyalarini o‘rganishi va ularni xorijiy tillarga o‘qitish orqali hamda 20 nafar yoshlarga boshqa turdag'i yordamlar ko‘rsatish orqali “Yoshlar daftari”dan chiqarish rejalashtirilgan. (*Talab qilinadigan mablag‘ taxminiy 387,0 mln.so‘m*)

Bundan tashqari yoshlarni bandligini ta’minlash bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi davlat rahbarining joriy yil 25-26 mart kunlari Namangan viloyatiga tashrifi yakunlari bo‘yicha “Uychi tumani tajribasi” asosida tuman, shaharlarni ishsizlikdan holi hududga aylantirish, migratsiya va kambag‘allikni keskin qisqartirish, ayniqsa yoshlar bandligini ta’minlash bo‘yicha barcha sohalarda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalar aniq belgilab berildi.

Ushbu topshiriqlar ijrosini ta’minlash maqsadida tumanda xam “Uychi tumani tajribasi” asosida mahallalarda yoshlar yetakchilari “mahalla yettiligi” bilan xatlov o‘tkazib, **456 nafar** ishsiz va **4 202 nafar** norasmiy band bo‘lgan yoshlar nomma-nom aniqlanib, ro‘yxati shakllantirildi.

Bugungi kunga qadar, **311 nafar** (68.2%) ishsiz yoshlarning bandligi ta’minlandi. **1465 nafar** (34.8 %) norasmiy band bo‘lgan yoshlar soyadan olib chiqilib, rasmiy bandligi ta’minlandi.

Mamlakatimizda yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, yuqori iqtisodiy o‘sishga erishish hisobidan xalqimizning kundalik hayotida ijobjiy o‘zgarishlarga erishish bo‘yicha tizimli harakatlarni izchil davom ettirish, “Yashil iqtisodiyot” tamoyillariga asoslangan yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlash, ekologik holatni yaxshilash, suv va boshqa tabiiy resurslardan unumli foydalanish standartlarini keng joriy qilish maqsadida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldag‘i “O‘zbekiston – 2030”strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalgaga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-37-sonli Farmoni ijrosini ta’minlash doirasida amalgaga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida Xalq deputatlari tuman Kengashiga taqdim etilgan hisobotdan va deputatlar tomonidan bildirilgan takliflardan kelib chiqib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Farg‘ona tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldag‘i “O‘zbekiston – 2030”strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalgaga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar yuzasidan amalgaga oshirilgan ishlar to‘g‘risida tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari I.Toshpo‘latovning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2.Tuman sektor rahbarlari, tuman hokimining barcha o‘rinbosarlari, tumandagi barcha idora va tashkilotlar, jamoat tashkilotlari “O‘zbekiston - 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar yuzasidan tasdiqlangan Davlat dasturida belgilangan vazifalarni tegishliligicha o‘z vaqtida, sifatli va tizimli bajarilishiga mas’ul ekanliklari alohida belgilab qo‘yilsin.

3. Tuman hokimining o‘rinbosarlari (O.Abduraxmonov, I.Toshpo‘latov, M.Qodirxonov, I.Raximov, X.Abdug‘aniyeva)ga:

* “O‘zbekiston - 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar yuzasidan tasdiqlangan Davlat dasturida belgilangan vazifalar, chora-tadbirlar va maqsadli ko‘rsatkichlar bajarilishi, Dasturda belgilangan topshiriqlar bandlari komplekslar bo‘yicha ijro etilishini ta’minalash va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan har oy yakuni bo‘yicha Xalq deputatlari Farg‘ona tuman Kengashiga hisobot kiritish vazifalari yuklatilsin.

4.Tumandagi davlat idoralari, jamoat tashkilotlari, sektor rahbarlari 2024-yilning qolgan davri uchun tuziladigan ish reja yoki chora-tadbirlar rejasida mazkur Davlat dasturida belgilangan tegishli vazifalar, chora-tadbirlar va maqsadli ko‘rsatkichlarni aks ettirsin va bajarilishi yuzasidan tegishli tadbirlarni belgilasin.

5.Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlariga:

“O‘zbekiston - 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar yuzasidan tasdiqlangan Davlat dasturida belgilangan vazifalar, chora-tadbirlar va maqsadli ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishi ustidan deputatlik nazoratini amalga oshirib borish:

bunda, Davlat dasturida belgilangan vazifalarni bajarilishi yuzasidan mas’ullarning hisobotlarini tegishli doimiy komissiyalar yig‘ilishlarida tinglab borish, muhokama etish va bu bo‘yicha zaruriyatga ko‘ra monitoring o‘rganishlar olib borish hamda Kengash sessiyalari kun tartibi muhokamasiga kiritib borish tavsiya etilsin.

6.Tuman hokimligi Axborot xizmati rahbari (A.Ergashev)ga:

Mazkur Davlat dasturi ijrosi yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar, ko‘rilayotgan chora-tadbirlarni rasmiy internet-kanallar va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritib borish vazifasi yuklansin.

7.Mazkur qaror ijrosini ta’minalash tuman hokimining barcha o‘rinbosarlari zimmasiga hamda ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Farg‘ona tumani Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



INOMOV XAMIDULLO
TADJIYEVICH